

**O'SMIRLARDA O'QUV FAOLIYATI MOTIVATSIYANING ILMIY-
NAZARIY PSIXOLOGIK TAHLILI**

Yodgorov Bobirjon Turobovich

*Osiyo xalqaro universiteti, Pedagogika va
psixologiya yo'nalishi 2-kurs magistranti*

Ilmiy rahbar: O.R.Avezov

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'smir yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatida motivatsiyaning o'rni va ahamiyati haqida atroflicha yoritilgan. O'quv faoliyati motivatsiyaning ilmiy nazariy psixologik tahlili keltirilib, motivatsiya nazariyalari orqali olimlarimiz tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar va yondushuvlarining mohiyati ochib berishga harakat qilingan.*

***Kalit so'zlar:** o'smirlilik yoshi, motiv, motivatsiya, barqaror va beqaror motivatsiya, o'quv motivatsiya, o'quv jarayoni, muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi.*

***Annotation.** This article provides an in-depth analysis of the role and significance of motivation in the learning activities of adolescents. It presents a scientific-theoretical psychological analysis of learning activity motivation and attempts to elucidate the essence of theories of motivation through the opinions and approaches expressed by various scholars.*

***Key words:** adolescence, motive, motivation, stable and unstable motivation, learning motivation, learning process, success-oriented motivation.*

***Аннотация.** Данная работа посвящена освещению методов объяснения студентам требований. В данной статье подробно раскрыта роль и значение мотивации в учебной деятельности учеников подросткового возраста. Приведен научно-теоретический психологический анализ мотивации учебной деятельности, раскрыта сущность взглядов и подходов ученых через теории мотивации.*

***Ключевые слова:** подростковый возраст, мотив, мотивация, стабильная и нестабильная мотивация, учебная мотивация, учебный процесс, мотивация достижения успеха.*

KIRISH

Yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning orzu umidlarini amalga oshirish, taklif va tashabbuslarini ro'yobga chiqarishda yaqindan ko'maklashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'smir yoshidagi ya'ni maktab yoshidagi o'quvchilarga e'tibor mamlakatning istiqboliga, boshqacha aytganda, "Uchinchi Renessans"ning bunyodkorlariga e'tibordir. Shunday ekan, ularning ta'lim olishi, yashash sharoiti, ma'naviy dunyoqarashi, tafakkur olami doimo mamlakatning diqqat e'tiborida bo'lishi tabiiy. Bunyodkor yoshlarning ilm-u salohiyati mamlakatning ravnaqi va ertangi kuniga daxldor ekani yaxshi ma'lum.

Maqsad: Har bir davrning o'ziga xos psixologik bosqichlari va o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasi o'zgaruvchan bo'lib o'smirlilik yoshi o'tish davri bo'lganligi sababli unda bir qancha motivlar ustunlik qilishi mumkin. Shuning uchun ham ulardagi o'zgarishlarni to'g'ri anglagan holatda o'smirlarda o'quv faoliyatida

muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini oshirish yuzasidan tadqiqot natijalari asosida tavsiya ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

O'quv motivlari va o'quv faoliyat motivatsiyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar o'quv faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek, ular muvaffaqiyatga intilish motivatsiyalari faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham deb hisoblaydilar. Bunday holatda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi.

O'quv motivlari - bu o'quvchilarni o'quv faoliyatining turli tomonlariga yo'naltirishdir. Masalan, o'quvchining o'zi o'rganayotgan obyekt bilan bajaradigan ishga qaratilgan bo'lsa, ularni bilish motivlari deb atash mumkin. Agar o'quv faoliyati o'quv jarayonida turli kishilar bilan to'g'ri muloqot qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy motivlar namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ba'zan o'quvchilarda bilish jarayoni, qolganlarida esa boshqalar bilan muloqot o'qish faoliyatini motivlashtirib turadi. O'sib va rivojlanib boruvchi inson - tarbiya objekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni, jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga — bo'yning o'sishi, vaznning og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining, ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kiradi. Ruhiy o'zgarishlar esa uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarning tarkib topishi hisoblanadi.

O'smir yoshidagi o'quvchilarning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi? O'smir yoshidagi o'quvchilarning shakllanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi. Bu muammo pedagogikada avvaldan munozaraga sabab bo'lib kelayotgan masala hisoblanadi. Shaxsni shakllantirish — uning o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlariga ega bo'lish jarayonidir. “Shakllantirish” tushunchasi “tarbiyalash” tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. S.L.Rubinshteyn: “Motivatsiya - bu psixika orqali amalga oshuvchi determinatsiyadir”, deb ta'kidlagan. Motivatsiya - murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayllar, maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiladi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy

xulq motivlari borasida katta, keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Motivatsiya tushunchasini turlicha ifodalash, motivatsiyaning mazmuni va energetik tomoni haqidagi muhim savol psixologlar tomonidan ifodalab berildi. Xorij psixologlari uchun motivatsiya tushunchasini xarakterli aniq bir tomonlama energetik faollik manbai sifatida qaraladi, ular mazmunli tomoniga e'tibor bermay, aniq mexanizmlar sifatida energiya, boshqaruv va xulq-atvorga taqsimlaydilar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qish motivatsiyasining o'rnini butun dunyo olimlari tomonidan tan olingan va har tomonlama o'rganilgan. O'quv samaradorligini oshirishda o'quv motivatsiyasining rolini chet el olimlari o'z tadqiqotlarida tadqiq qildilar. Shu nuqtai nazardan turib, qo'zg'atuvchilardan tashqarida sodir bo'ladigan xatti-harakatlarni tushuntirish bo'yicha bir talay modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni ko'rib chiqish ichki motivatsiyaning mexanizmlarini tahlil qilishda qo'l keladi. Shunday modellardan birini Olport taklif qiladi. Olport ichki motivatsiya bilan bog'liq bo'lgan uchta motivatsion tushunchalarni tahlil qiladi: funksional avtonomiya, yetarli darajadagi harakat va "Men"ning jalb qilinganligi. U funksional avtonomiya tamoyilini faoliyat dastavval boshqa sabab bo'yicha paydo bo'lishi mumkin bo'lgan holda, o'zi uchun maqsadga aylanishi holatini tushuntirish uchun kiritadi.

E.Torndayk tajribalarining alohida tomoni ularning juda tor va cheklangan xarakterga ega ekanligidir: ular real o'quv jarayoni bilan juda oz darajada bog'langandir. Amerikalik mualliflar ko'proq o'quv jarayoni anglab yetilgan motivlari bilan emas, balki ayrim jihatlari kamroq fahmlanadigan ko'rinishda bo'lib, o'quv jarayoniga mayl-istak uyg'otadigan muammo o'qishni motivlashtirish masalalari bilan shug'ullanadilar. Bunday ilmiy ishlarning mualliflari, masalan, o'quvchining sonlarni yodlashiga, alohida xatti-harakatlariga qaysi psixologik jihatlari ta'sir ko'rsatishlarini o'rganadilar va shu yo'l orqali motivlashtirishning ayrim komponentlarini aniqlashga harakat qiladilar. Bu sohada ular E.Torndaykning izdoshlari hisoblanadilar. E.Torndayk o'quv jarayonini shunday ta'riflaydi: "O'quv jarayoni"- u yoki bu javob reaksiyasining ma'lum holati bilan muayyan bo'shliqlikda, ya'ni ushbu reaksiya hamda vaziyat o'rtasida ma'lum aloqa o'rnatilishi bilan izohlanadi. E.Torndayk kishi o'zi xohlagan reaksiyaning takrorlanishiga nisbatan ro'yxushlikning hamda o'zi xohlagan reaksiyaga nisbatan bo'lgan maylning ta'sirini o'rganishga harakat qiladi va shunday xulosaga keladi: "Bir xil sharoitda yuzaga kelgan jazolash omillari rag'batlantirish omillaridan ancha bo'sh va kuchsizdir". Keyingi kitobida esa: "Rag'batlantirish umuman o'ziga eltuvchi barcha aloqalarni

yoqlash va kuchaytirish an'anasiga ega, jazolash esa tez-tez (lekin har doim ham emas) aloqalarni muayyandan noaniqqa o'zgartirish xususiyatiga egadir".

Bruner ham o'qishni motivlashtirish masalasiga E.Torndaykdan boshqacha qaraydi. "O'quv jarayoni" nomli izlanishlarida Bruner o'quvchilarning real, yetarli darajada uzoq davom etadigan o'qish jarayoni tufayli tug'iladigan amaliy va nazariy muammolarni izohlashga harakat qiladi. Bruner o'qishni motivatsiyalash, yoki o'qish jarayoniga nisbatan o'quvchilarning moyilligini orttiruvchi omillar haqida emas, balki uning bilan birga, o'quvchining motivlari haqida ham fikr yuritadi. Garchi uning fikrlari umumiy xarakterda bo'lsa ham, ulardagi ayrim yo'nalishlari diqqatga sazovordir. Bu birinchi galda, o'qish jarayonida bilish xarakteridagi motivlarning ahamiyati va yangi narsani bilishdan paydo bo'ladigan ichki qanoat hissi, himoya masalalarining qo'yilishidir. O'quvchilarning ta'limini motivatsiyalash va diagnostika qilish haqida fikr yuritgan olimlar G.Levald (1985) va G.Rozenfeldlarning fikricha, bu ish amalga oshiriladigan vaziyatni ham hisobga olish kerak, chunki, bu ta'lim motivatsion diagnostikasi uchun muhimdir. G.Levald (1985) ta'lim diagnostikasi vaziyatni, yo'nalishni hisobga oladigan yoki tabiiy sharoitga mos bo'lishi lozim, - deydi. Masalan, rag'batlantiruvchi material haqiqiy hayotga mos kelishi lozim, chunki, sun'iy shart-sharoit, muhit shaxsiy xususiyatlarning yuzaga chiqishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. A.K.Markova motivlarni 2 ta katta guruhlariga ajratgan:

1. O'quv faoliyatining mazmuni va uni bajarish bilan bog'liq bilish motivlari;
2. O'quvchining boshqa kishilar bilan o'zaro ijtimoiy (sosial) motivlari.

TADQIQOT NATIJALARI

Hozirgi davrda o'qish motivatsiyasini diagnostika qilishning boshqa yo'llari tavsiya qilinayapti: laboratoriya eksperimentlarini pedagogik tajribalar bilan (tabiiy diagnostika uslublarini qo'llash), shuningdek, real o'quv jarayoni sharoitida o'smir yoshidagi o'quvchining ijtimoiy xulqini uzoq muddat o'rganish bilan to'ldirish mumkin (A.K.Markova), bu o'qish motivatsiyasini diagnostika qilish natijalarini tekshirish sifatida xizmat qilishi mumkin deb ta'kidlaydi. O'qish motivatsiyasini diagnostika qilish uni o'tkazish uchun uslub tanlash tamoyillarini aniqlashtirishni talab qiladi. Ta'lim motivatsiyasini diagnostika qilishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, eng kamida, quyidagilarni ajratish mumkinligi N.E.Efimova tomonidan tavsiya qilingan:

- Diagnostika o'tkazish uchun asos bo'ladigan ta'lim motivatsiyasi ko'rsatkichlarini belgilash.

- Uch toifadagi diagnostika uslublarini tanlash, bevosita loyihaviy va bilvosita-ta'lim motivatsiyasi ko'rsatkichlarini diagnostika qilishga yo'naltirilgan uslublar.

- Har bir uslubning ajratilgan ko'rsatkichlarga bo'lgan diagnostikaviy imkoniyatlarini aniqlash.

- Mazkur metodika natijalarini namoyon qilish chog'ida hisobga olinadigan nazariyani uslubning metodologik asosini hisobga olish.

- Metodika matnlarining o'quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi.

- O'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish.

- Diagnostikani o'tkazish.

Agar ijtimoiy motivlar ham ta'lim faoliyati uchun yetakchi hisoblansa, bir qator mualliflar (P.Ya.Galperin va boshqalar) ta'lim faoliyatiga nisbatan ularga tashqi motivlar sifatida qarashadi. P.Ya.Galperin fikricha, tashqi motivlar ta'lim jarayoni va predmetiga nisbatan "amaliy" munosabatda namoyon bo'ladi, bunda bilim keyingi faoliyat uchun tashqi shart-sharoit sifatida qaraladi va u ichki ta'limga bo'lgan barqaror qiziqish bilan bog'liqdir. Tashqi motivlar ichida aynan tashqi yoki utilitar motivlar (bunda harakatning shakllanishi, sub'ekt moyil bo'lgan faoliyatni amalga oshiradigan shart-sharoit hisoblanadi) va musobaqaviy motivlar ajratiladi, bunda sub'ekt: boshqalarga va o'z-o'ziga o'zining oldingi muvaffaqiyatlarini qiyoslagan holda muvaffaqiyatlarga intiladi. M.V.Matyuxina ham o'qish faoliyati jarayoniga singdirilgan quyidagi ikki toifa motivlarni ajratadi:

A) mazmun vositasida motivlashish (uchta darajasi mavjud, qiziqish, qiziqarlilik, dalillarga bo'lgan qiziqish, voqealar mohiyatining kelib chiqishiga qiziqish);

B) jarayon vositasida motivlashish (uchta darajasi mavjud, ijrochilik faoliyatini bajarish sifatida, qidiruv ijrochilik qoidalarini keltirib chiqarish sifatida, ijodiy-mustaqil ravishda masalalar tuzish).

O'quv faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lgan motivlar:

A) keng-ijtimoiy;

B) tor-shaxsiy;

C) salbiy.

MUHOKAMA

Bundan tashqari biz o'smir yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatini rivojlantirishda bir qancha motivlarni ko'rib chiqib olimlarning tadqiqotlarini o'rgandik va o'smir yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirish uchun T.Elersning "Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini tashxis qilish" metodini qo'llaymiz. Bu metodika nemis psixologi Theodor Ehlers Marburz`k universiteti professor o'qituvchisi tomonidan 1980-yilda yaratilgan. Metodika 41 ta savoldan tashkil topgan bo'lib, har bir savolga "ha" yoki "yo'q" deb javob berish kerak bo'ladi. Ballar yig'indisi to'rt darajadagi munosabatni belgilaydi.

T/r	Eksperiment guruhining F.I.Sh.	Ball	Nazorat guruhining F.I.Sh.	Ball
1	Qobulova Yasmina	20	Sayfiddinov Sardor	16
2	Sanaqulov Asilbek	15	Temirova Malika	19
3	Hatamova Saida	23	Abduazizov Shaxriyor	16
4	Qarshiyev Sanjar	24	Ibragimov Sherxon	19
5	Husanova Durdona	18	Xaitova Nilufar	21
6	Islomova Marjona	18	Ergasheva Odina	24
7	Arabov Diyorbek	18	Tursunova Zuhra	26
8	Abdumajidov Shohruz	19	Ergashev Sunnatillo	18
9	Kamolova Dilnura	16	Normamatov G'ayrat	21
10	Erkinova Zuxra	24	Abduaxatova Setora	19
11	Abduvaliyev Shohijahon	20	Xasanova Setora	20
12	Imomova Ruxshona	24	Azimboyev Bobur	23
13	Shokirova Zarina	24	Xaitov Asqar	21
14	Sunnatova Sevinch	19	Baxodirova Asila	21
15	Roziqova Dildora	20	Karimov Azambek	19
16	Axtamov Laziz	22	Kamolov Komil	21
17	Abduvaliyev Abdulaziz	21	Shopulatov Xurshid	22
18	Uchqunov Javohir	22	Tursunova Fotima	23
19	Qo'ldoshov Shamshod	21	Olimjonova Kumishbibi	22
20	Ahmadov Sunnatillo	22	Qo'ysinov Asilbek	26
21	Eshmurodov Sayfiddin	20	Orziyev Xushnud	21
22	Azimjonov Umurzoq	27	Meliyev Otabek	23
23	Elboyeva Laziza	24		

24	Shomurodova Aziza	26		
25	Meliboyeva Ruhshona	22		
26	Normurodov Asilbek	13		
27	Turimova Feruza	18		
28	Sheraliyeva Mehribon	23		

Metodika: O'smir yoshidagi o'quvchilarni "Bilim olishga yo'naltirilganlik" E. P. Ilyin va N. A. Kurdyukova tomonidan taklif qilingan metodika bilim olishga yo'naltirilganlikni o'rganadi. Bilim olishga yo'naltirilganlik o'quv faoliyatining asosiy natijasi sifatida olingan bilimlarni ko'rishga bo'lgan intilishdir.

T/r	Ekspiriment guruhining F.I.Sh.	Ball	Nazorat guruhining F.I.Sh.	Ball
1	Qobulova Yasmina	11	Sayfiddinov Sardor	6
2	Sanaqulov Asilbek	8	Temirova Malika	9
3	Hatamova Saida	11	Abduazizov Shaxriyor	8
4	Qarshiyev Sanjar	9	Ibragimov Sherxon	9
5	Husanova Durдона	12	Xaitova Nilufar	11
6	Islomova Marjona	9	Ergasheva Odina	11
7	Arabov Diyorbek	8	Tursunova Zuhra	11
8	Abdumajidov Shohruz	7	Ergashev Sunnatillo	10
9	Kamolova Dilnura	7	Normamatov G'ayrat	10
10	Erkinova Zuxra	9	Abduaxatova Setora	10
11	Abduvaliyev Shohijahon	10	Xasanova Setora	10
12	Imomova Ruxshona	11	Azimboyev Bobur	9
13	Shokirova Zarina	11	Xaitov Asqar	9
14	Sunnatova Sevinch	9	Baxodirova Asila	11
15	Roziqova Dildora	10	Karimov Azambek	11

16	Axtamov Laziz	8	Kamolov Komil	7
17	Abduvaliyev Abdulaziz	10	Shopulatov Xurshid	8
18	Uchqunov Javohir	9	Tursunova Fotima	11
19	Qo'ldoshov Shamshod	7	Olimjonova Kumishbibi	9
20	Ahmadov Sunnatillo	10	Qo'ysinov Asilbek	10
21	Eshmurodov Sayfiddin	10	Orziyev Xushnud	10
22	Azimjonov Umurzoq	10	Meliyev Otabek	11
23	Elboyeva Laziza	9		
24	Shomurodova Aziza	7		
25	Meliboyeva Ruhshona	8		
26	Normurodov Asilbek	9		
27	Turimova Feruza	10		
28	Sheraliyeva Mehribon	9		

Elersning "Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi"ni tashxis qilish metodikasi

Yo'riqnoma: Quyida berilgan 41 ta savolga "ha " yoki "yo'q " deb javob bering.

1. Ikkita ishdan birini zudlik bilan bajarish yoki ularni tanlash kerak bo'lsa, yaxshisi tezda unga kirishib, bajarib qo'ya qolgan afzal.

2. Berilgan topshiriqni 100% yaxshi bajara olmayotganligimni sezsam, juda qayg'uraman.

3. Ishlayotgan vaqtimda shunday berilib ketamanki, go'yoki hamma narsa shunga bog'liqday.

4. Muammoli vaziat paydo bo'lganda, men qaror chiqarishga shoshilmayman.

5. Ikki kun surunkali ishsiz qolsam, xalovatimni yo'qotaman.

6. Ba'zi kunlari mening muvaffaqiyatlarim o'rtachadan past bo'ladi.

7. Men o'zimga boshqalarga qaraganda ancha talabchanman.

8. Men boshqalardan ko'ra saxovatli, mehribonroq odamman.

9. Qiyin topshiriqni bajarishdan bosh tortgan paytlarimda, odatda men o'zimni koyiyman, chunki bilaman o'zim, agar o'sha ishga kirishganimda bajargan bo'lardim.

10. Ishlash davomida men tez-tez dam olib turishga ehtiyoj sezaman.

11. Tirishqoqlik va tinmaslik - mendagi asosiy sifat emas.

12. Mening mehnatdagi yutuqlarim doim ham bir xil emas.

13. Menga bevosita o'zim bajarayotgan ishni emas, balki boshqa ishlarni bajarish ko'proq yoqadi.

14. Maqtovdan ko'ra tanqid meni ko'proq ishlashga majbur qiladi.

15. Meni hamkasblarim ishchan deb hisoblashlarini yaxshi bilaman.

16. Ishdagi qiyinchiliklar mening qarorlarimni yanada qatitlashtiradi.

17. Mening nafsoniyatimga tegish juda ham oson.

18. Boshqalar mening ilhomsiz, tashabbussiz ishlayotganimni sezishadi.

19. Biror ishni bajarayotganimda men boshqalarning ko'magiga tayanmayman.

20. Men ba'zan hozir qilishim mumkin bo'lgan ishni keyinga qoldiraman.

21. Odam faqat o'ziga ishonishi kerak.

22. Hayotda puldan ham muhim bo'lgan narsa deyarli yo'q.

23. Muhim biror topshiriqni bajarish kerak bo'lganda men doimo boshqa barcha tashvishlarni unutaman.

24. Men ko'pchilikka qaraganda, unchalik izzattalab emasman.

25. Ta'til oxirida men odatda yaqinda ishga chiqishimni o'ylab quvonaman.

26. Menga ish yoqsa, uni men boshqalarga nisbatan malakaliroq bajaraman.

27. Men ishga kirishib ketadigan insonlar bilan til topishim osonroq bo'ladi.

28. Ishim yo'q paytlarda men o'zimni bexalovat his qilaman.

29. Men boshqalarga nisbatan mas'uliyatli bo'lib ishlarni tez-tez bajarishimga to'g'ri keladi.

30. Qaror chiqarish mas'uliyati menga yuklansa, yaxshiroq bajarishga intilaman.

31. Mening do'stlarim meni ba'zan dangasa deb hisoblashadi.

32. Ma'lum ma'noda mening yutuqlarimda hamkasablarimning ulushi bor.

33. Rahbarning ra'yini qaytarishdan foyda yo'q.

34. Ba'zan qanday ish bajarish kerakligini ham bilmaysan.

35. Ishim yurishmay qolgan paytlarimda men betoqat bo'lib bezovtalanaman.

36. Men odatda o'z yutuqlarimga kam e'tibor beraman.

37. Boshqalar bilan ishlayotgan paytlarimda mening yutuqlarim boshqalarnikidan ko'proq va sezilarliroq bo'ladi.

38. O'z bo'yning olgan ko'pgina ishlarni men oxiriga yetkaza olmayman.

39. Men ishi juda ko'p bo'lmagan odamlarga havas qilaman.

40. Men hokimiyatga intilgan va amalparastlarga havas qilmayman.

41. Men o'z yo'limning to'g'riligiga shubha qilmasam, uni amalga oshirish yo'lida hech narsadan toymayman.

Kalit: Siz quyidagi savollarning "ha" javoblari uchun 1 balldan oldingiz: 2,3,4,5,7,8,9,10,14,15,16,17,21,22,25,26,27,28,29,30,32,37,41.

Quyidagilarga "yo'q" deganingiz uchun ham 1 balldan oldingiz: 63,13,18,20,24,31,36,38,39.

Nihoyat, 1,11,12,19,23,33,34,35,40 savollarga berilgan javoblar hisobga olinmaydi.

Endi to'plagan ballaringizni hisoblang.

Natijalar:

I balldan 10 ballgacha - muvaffaqiyatga nisbatan juda past motivatsiya;

II balldan 16 ballgacha - o'rta darajadagi motivatsiya;

17 balldan 20 ballgacha - anchagina yuqori motivatsiya;

21 balldan yuqori -muvaffaqiyatga nisbatan o'ta yuqori motivatsiya.

XULOSA

O'rganilgan empirik natijalar asosida o'smirlarda o'quv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirish va shu bilan birgalikda o'quv faolligi doirasidagi "kognitiv", "hissiy-irodaviy", "baholash" komponentlari, shaxs umumiy yo'nalganligiga asoslangan o'quvchi shaxsining "o'z-o'ziga", muloqotga" va "faoliyatga" bo'lgan munosabat darajalarini tadqiq qilish va tegishli empirik ma'lumotlarni qo'lga kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. A.N.Leontev. Umumiy psixologiya. 278-bet, Toshkent -2009.
3. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
4. Do'stmuhamedova SH.A., Nishanova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent: "O'qituvchi", 2013. - 343 bet.
5. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat. Darslik, "Kamolot" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
6. Alisherovna, M. K. (2020). Analysis and evaluation of sources of investment in automotive transport enterprises. South Asian Journal Of Marketing & Management Research, 10(4), 74-78.
7. Avezov O.R., Z.J.Ahmedova. Ekstremal vaziyatlar psixologiyasi. Darslik, "Kamolot" nashriyoti, 2022 yil. 256 bet.
8. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti. Pedagogik Mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 5-son (2021-yil, oktabr). Buxoro, 2021 y. B. 145-150.
9. Alisherovna, M. K. (2021). Car transport an approach to the research of the essence of investment activities of enterprises. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(5), 415-418.
10. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантириш Билан Боғлиқ Бўлган Муаммолар. International scientific journal of Biruni, 3(2), 245-265.

11. Avezov O.R. Psychological relations between family members. Scientific Journal Impact Factor. Volume 2 | Issue 2. ISSN 2181-1784. SJIF 2022: 5.947 February 2022 www.oriens.uz. P-945-949
12. Mukhitdinova, K. A. (2022). Technical And Economic Condition Of Oil Drilling From The Field Of "Mubarak Ogp" Enterprise.
13. Avezov O.R. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency. and Extreme Emergencies American Journal of Social And Humanitarian Research. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022. <https://www.grnjournals.us/index.php/AJSHR/artisile/view/714>
14. Avezov O.R. Ta'lim- tarbiya jarayonida agressiv xulqli bolalar ota- onasi bilan ishlashning o'ziga xos psixologik jihatlari. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish sharoitida shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirishning falsafiy omillari" //Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari// Farg'ona, 2017 y. B. 248-251.
15. Alisherovna, M. K. (2022). Use of communication networks in the optimization of investment project work. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research, 11(5and6), 49-52.
16. Abdumajitovna, V. N. (2024). Government of Turkestan Autonomy And Its Activities. International Journal of Advance Scientific Research, 5(12), 179-181.
17. Mukhitdinova, K. (2022). Increasing the Efficiency of Investment Activities of Automotive Enterprises. International Finance and Accounting, 2022(1), 20.
18. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik, "Durdona" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
19. Alisherovna, M. K. (2021). Formation of a Database in The Assessment of Investment Attractiveness of Auto Transport Enterprises. Central Asian Journal Of Innovations On Tourism Management And Finance, 2(6), 62-65.
20. Бободжоновна, З. (2021). Economic regulation of development methods for water injection at explored fields. Общество и инновации, 2(11/S), 37-41.
21. Alisherovna, M. K. (2022). Attracting investment to regions-An important factor of development. Asian Journal Of Research In Banking And Finance, 12(3), 10-13.
22. Mukhitdinova, K. A. (2020). The Importance of Sources of Financing of Transportation System. In Наука 2020. Теория И Практика (pp. 23-25).
23. Alisherovna, K. (2019). Investment support for the activities of motor transport enterprises and their effective utilization. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(2), 465-471.
24. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, "Buxoro viloyati bosmaxonasi" nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.
25. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 363-368.
26. Alisherovna, M. K. Investment Climate In Uzbekistan And Influencing On Some Factors. Gwalior Management Academy, 47.

27. Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.
28. Abdufattokhov, S., Zanon, M., & Bemporad, A. (2021, December). Learning convex terminal costs for complexity reduction in MPC. In 2021 60th IEEE Conference on Decision and Control (CDC) (pp. 2163-2168). IEEE.
29. Okbayeva, N. (2021). Innovative approach to solving combinatic elements and some problems of newton binomy in school mathematics course. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2021(1), 67-76.
30. Alisherovna, M. K. (2022). Assessment of investment attractivity of industrial enterprises.
31. Avezov O.R. L.YA. Olimov, A.M. Nazarov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. "Durdona" nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.
32. Mukhitdinova, K. A. (2020). Analysis of Investment Attractiveness Of The Enterprise. Экономика и социум, (4 (71)), 73-76.
33. Alisherovna, M. K. (2021). Tasks of implementation of investment policy. Academia: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 848-852.
34. Mukhitdinova, K. A. (2022, January). Stages Of Development Of The Digital Economy. In Multidiscipline Proceedings Of Digital Fashion Conference (Vol. 2, No. 1).
35. Okbaeva, N. (2022). Pascal's triangle, its planar and spatial generalizations. ISJ Theoretical & Applied Science, 3(107), 815-8.
36. Бабажанов, Ю., Окбаева, Н., & Бабажанова, И. (2019). Метод Определения Коэффициента Эффективности Газопровода. In Актуальные проблемы математики и информатики: теория, методика, практика (pp. 58-59).
37. Окбоева, Н. (2018). Уравнение Лапласа И Гармонические Функции. In Фундаментальные научные исследования (pp. 63-66).
38. Abdufattokhov, S., Normatova, N., & Shermatova, M. (2022). Artificial Neural Networks Based Predictive Model for Detecting the Early-Stage Diabetes. Journal of Artificial Intelligence, Machine Learning and Neural Network (JAIMLNN) ISSN, 2799-1172.